



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



No 7
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiyaga fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 202 sahifa,
1-iyul, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Umarova H. O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabihev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'idoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarcand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahriri yati DM bosh muharriri, O'zbekiston

Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)

Panjayev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'inining birinchi

o'rinnbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Umarova H. O' – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda

Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va matab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oly attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va matab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361

MUNDARIJA

Konvergent tahririyat mas'uliyati: Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonini yoritish tendensiyalari	16
Doniyorov Salim Musurmonovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish.....	23
Nazarov Odil Omanqulovich	
"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiysi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni	27
Abirova Umida Nazarovna	
Maktabgacha yoshdag'i bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati	30
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li	
Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari	34
Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna	
Maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda	
ta'limiyo yinlarning ahamiyati	38
Salimova Dilimira Farxodovna	
Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar	41
Rajabov Asliddin Xolmirzayevich	
Favqulodda vaziyatlar yo'nalishi ta'lima muloqotning ahamiyati.....	44
Boltayev Baxtiyor Yunusovich	
Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar	48
E. Po'latova	
Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati ...	51
Egamova Ravshanoy Surobjonovna	
O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin?	
Innovatsion ta'lif yondashuvlari va samarali strategiyalar.....	55
G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li	
Nutq Kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi	60
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons	63
Mavlonova Dildora Shuxrat qizi	
Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish	67
Nomozova Dilobar Suyun qizi	
Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini	
shakllantirish: bosqichlar va tamoyillar	72
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi	
3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories	75
Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li	
Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction:	
a Review of Recent Literature	80
Ruzieva Maftuna	
Onlayn va gibrid ta'lif sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga	
qiziqishni oshirishning nazariy asoslari.....	85
Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna	
Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi (9-sinflar uchun	
"Metallar va ularning umumiyl xususiyatlari" mavzusida).....	88
Sharipova Hakima Shavkatovna	
Metacognition and Self-Regulated Learning	92
Turayeva Nazira Ibragimovna	
Методические возможности совершенствования обучения научной	
письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода	95
Меденцева Наталья Петровна	
Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lif muassasalari	
raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari	100
Jonibekov Jasur Jonibekovich	



O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi.....	105
Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi	
Sharq va G'arbda tibbiyot fanlarining yaratilishi tarixi.....	108
Bakayev Najmiddin	
Didaktik o'yinlar bola faoliyatining asosiy vositasi sifatida	112
Egamova Madina Qobil qizi	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining konvergent-kreativ tafakkurini takomillashtirishning didaktik asoslari.....	116
Egamova Shukriya Amanova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatlari orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishish imkoniyatlari	119
G'aybullayeva Nafisaxon Nosirjon qizi	
Matematika o'qitishning klassik metodlaridan zamonaviy usullariga o'tish	124
G'ofurov Jamoliddin Xusniddinovich	
Jahon miqyosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	128
Hoshimova Dilnoza Boymirzoyevna, Mahmudova Zulfiya Homidovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning prognostik kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari.....	131
Ikromova Munisa Sheraliyevna	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorgarligini grafik ma'lumotlar asosida oshirishning didaktik asoslari	134
Jumanazarova Zuhra Qosimjonovna	
Sport va jismoniy tarbiya pedagogikasida innovatsion metodlar	138
Jumanova Iroda Shokirjon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish	141
Jumayeva Sarvinoz Ilhombekovna	
Talabalarda nutqiylarini shakllantirish texnologiyasi	145
Kiyamova Maxbuba Sultanovna	
Innovatsion yondoshuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning amaliy jihatlari.....	148
Mamadiyorov Jamol	
Ingliz tili matnlarini o'rganishda 6-sinf o'quvchilarining grammatik kompetensiyasini oshirish va tatbiq qilishning samarali usullari.....	152
Sharipova Firuza Mehriddinovna	
Kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish modeli	155
Tursunov Hojiakbar Hamidullo o'g'li	
Maktabgacha ta'lilda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – pedagogik muammo sifatida.....	159
Xallokova Maksudaxon Ergasheva	
Altruistik xulq-atvorning shaxsiy va ijtimoiy determinantlari.....	162
Xatamova Ferangiz Ibodulloyevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	166
Xudoberganova Matluba Quisoxatovna	
Refleksiv yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni va afzallikkleri.....	170
Yodgorova Gulrux Farhodovna	
Совершенствование методики формирования компетентности будущих студентов-искусствоведов в условиях цифрового образования.....	174
Юлдашев Эргаш Сабирович	
O'z-o'zini rivojlantirish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati	177
Kudenov Temurbek Maxsetbaevich	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida hikoya janrini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarb muammo sifatida	180
Ergasheva Shoxida Nurmuxammadovna	
Ingliz tili darslarini interaktiv tashkil etishda raqamlı ta'lim vositalarining o'rni va metodik yondashuvlar	185
Raxmatullayeva Barno Baxtiyor qizi	
The Effectiveness of Using Podcasts to Enhance Listening Comprehension and Vocabulary Acquisition in Secondary School English Classes	189
Meliboyev Zuxriddin Isroil ugli	

O'zbekiston tarixi darslarida pedagogik improvizatsiyani texnologiyalashtirish va raqamlashtirish imkoniyatlari	192
Ergasheva Muhayyoxon G'anjonovna	
Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning samaradorligi.....	196
Arslanova Umidaxon Komiljon qizi	

KAR VA ZAIF ESHITUVCHI YUQORI SINF O'QUVCHILARINING AXBOROT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MODELI

Tursunov Hojiakbar Hamidullo o'g'i
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0000-0002-1280-604X

Annotatsiya: Mazkur maqolada kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetensiyasini shakllantirish va rivojlanirishga qaratilgan model asosida ishlash tamoyillari yoritilgan. Tadqiqotda ushbu toifadagi o'quvchilarning axborotni qabul qilish, qayta ishslash, tushunish va undan foydalana olish darajalariga ko'ra moslashtirilgan o'quv-uslubiy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Shuningdek, axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalanish orqali ularda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlanirishning samarali yo'llari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: kar o'quvchilar, zaif eshituvchi o'quvchilar, axborot kompetensiyasi, model, maxsus ta'lim, yuqori sinf, texnologik yondashuv, axborot savodxonligi.

Abstract: This article discusses the principles of working on a model aimed at forming and developing information competence of deaf and hard of hearing senior students. The study developed educational and methodological approaches adapted to the level of perception, processing, understanding and use of information by this category of students. Also, effective ways of developing independent learning skills in them by using the capabilities of information technologies were considered.

Key words: deaf students, hard of hearing students, information competence, model, special education, senior class, technological approach, information literacy.

Аннотация: В данной статье рассматриваются принципы работы над моделью, направленной на формирование и развитие информационной компетентности глухих и слабослышащих учащихся старших классов. В ходе исследования разработаны учебно-методические подходы, адаптированные к уровню восприятия, переработки, понимания и использования информации данной категорией учащихся. Таюже рассмотрены эффективные способы формирования у них навыков самостоятельного обучения с использованием возможностей информационных технологий.

Ключевые слова: глухие учащиеся, слабослышащие учащиеся, информационная компетентность, модель, специальное образование, старшие классы, технологический подход, информационная грамотность.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, imkoniyati cheklangan, xususan, kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilari uchun bu yo'nalish yanada alohida yondashuvni talab qiladi. Chunki ular uchun axborot olish manbalari, axborotni tushunish darajasi va uni amalda qo'llash usullari boshqacha shakllanadi. Shu bois, ularning axborot kompetensiyasini rivojlanirishda maxsus modellarga tayanilgan holda o'qitish samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biridir.

Bugungi kunda jamiyatning har bir a'zosi uchun axborotga ega bo'lish va undan samarali foydalana olish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilari uchun axborot kompetensiyasini rivojlanirish ularning ijtimoiy hayotga moslashuvi, ta'lim olishi va kelajakda kasbiy faoliyat yuritishi uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi. Eshitish nuqsoni bo'lgan shaxslar axborotga kirishishda va uni qayta ishslashda bir qator qiyinchiliklarga duch kelishadi, bu esa ularning axborot kompetensiyasining yetishmasligiga olib kelishi mumkin. Ushbu maqola kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlanirish modelini taklif qilish va uning ahamiyatini asoslashga qaratilgan. Maqolada mavzuning dolzarbligi, muammoning bayoni, maqsad va vazifalar atroficha yoritiladi.



Kar yoki zaif eshituvchi bolalarni maxsus o'qitish va ularni tarbiyalash bilan surdopedagogika fani shug'ullanadi. Bu sohaning asosiy maqsadi – ularni mehnatga tayyorlash, talaffuzni va "lab bilan o'qish"ni o'rgatishdan iborat. Fanni o'rganish orqali zaif eshituvchi bolalarda og'zaki nutq shakllanib boradi, chunki ularga so'zlar talaffuz qilinganda nutq organlarining harakati o'rgatiladi. Nutqni takrorlashga o'rgangan zaif eshituvchilar gapirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, ular maxsus o'quv alifbosini – daktiologiyadan foydalanib gapirishlari ham mumkin [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Eshitish idrokining buzilishi oqibatida insonning nutqni egallay olmasligi, shu bois jamiyat a'zolaridan uzilib qolish, ijtimoiy hayotda o'z o'mnini topishdagi qiyinchiliklarga sabab bo'ladi. L. S. Vigotskiyning ta'kidlashicha, ijtimoiy tarbiya nutqning rivojlanmaganligiga, nutqning rivojlanmasligi jamoa (kollektiv)dan yakkalanib qolishga, jamoa (kollektiv)dan ajralib qolish esa, o'z navbatida, ijtimoiy tarbiya hamda nutqning rivojlanishini tormozlaydi [1]. Bu esa axborot kompetensiyasining rivojlanishi naqadar muhim ekanligini ko'rsatadi.

Axborot kompetensiyasi – bu shaxsnинг axborotni izlash, topish, baholash, tashkil etish, yaratish va samarali foydalanish qobiliyatidir. Bu qobiliyat XXI asrda har bir inson uchun, ayniqsa, ta'lim oluvchilar uchun zaruriy ko'nikma hisoblanadi. Kar va zaif eshituvchi o'quvchilar uchun axborot kompetensiyasi yanada muhimroqdir, chunki ular axborotga kirishishda va uni tushunishda qo'shimcha to'siqlarga duch kelishadi. Ular uchun axborot kompetensiyasi nafaqat bilim olish, balki ijtimoiy integratsiya va mustaqil hayot kechirish uchun ham asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Eshitish nuqsoni bo'lgan bolalarning o'ziga xos xususiyatlari ularning axborotni qabul qilish usullariga ta'sir qiladi. Ular asosan vizual va taktil (sezgi) kanallar orqali axborotni qabul qilishadi. Shuning uchun, axborot kompetensiyasini rivojlantirishda multimediali materiallar, vizual yordamchi vositalar va daktiologiya kabi maxsus usullardan foydalanish muhimdir.

Axborot kompetensiyasining rivojlanishi kar va zaif eshituvchi o'quvchilarga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- **Bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish** – ular o'quv materiallarini mustaqil o'rganish, yangi ma'lumotlarni izlash va tushunish qobiliyatiga ega bo'ladilar.
- **Ijtimoiy moslashuv** – axborotga ega bo'lish va undan foydalana olish ularga jamiyatda faol ishtirok etish, muloqot qilish va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.
- **Kasbiy rivojlanish** – axborot kompetensiyasi kelajakda kasb tanlash va ish faoliyatida muvaffaqiyatga erishish uchun asos bo'ladi.
- **Mustaqillikni oshirish** – ular o'z muammolarini hal qilish, qaror qabul qilish va mustaqil hayot kechirish uchun zarur bo'lgan axborotni topish va undan foydalanishni o'rganadilar.

Eshitish qobiliyati buzilgan shaxslarni sifatli o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish va reabilitatsiya qilishning shartlaridan biri – bu mutaxassislarining har birining eshitish funksiyasi holatining xususiyatlarini to'g'ri tushuniши va ularni barcha turdagи psixologik hamda ruhiy kasalliklar tizimida hisobga olishidir [2]. Bu esa axborot kompetensiyasini rivojlantirishda individual yondashuvning muhimligini ko'rsatadi.

Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda axborot kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari. Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda axborot kompetensiyasini rivojlantirish nazariy asoslari surdopedagogika, maxsus psixologiya va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohalaridagi tadqiqotlarga tayanadi. Surdopedagogika eshitish nuqsoni bo'lgan shaxslarni o'qitish va tarbiyalashning nazariy va amaliy masalalarini o'rganadi. Maxsus psixologiya esa ularning psixologik xususiyatlari, kognitiv rivojlanishi va o'rganish jarayonlarini tahlil qiladi.

L. S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi nutqning inson kognitiv rivojlanishidagi markaziy rolini ta'kidlaydi. Eshitish nuqsoni bo'lgan bolalarda nutqning rivojlanishi o'ziga xos yo'llar bilan kechadi, bu esa ularning axborotni qayta ishlash qobiliyatiga ta'sir qiladi. R. M. Boskisning tadqiqotlari eshitish nuqsoni bo'lgan bolalarni pedagogik tasniflash va ularga ta'limga berish metodikalarini ishlab chiqishda muhim rol o'ynagan [1]. Uning ishlari eshitish nuqsoni darajasiga qarab ta'limga berish metoddalarini differensiallashtirish zarurligini ko'rsatadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning axborotga kirishish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Multimediali materiallar, interaktiv dasturlar, onlayn resurslar va maxsus ta'limga platformalari ularga vizual va interaktiv tarzda bilim olish imkonini beradi. Ushbu texnologiyalar nutqning akustik komponentlarini vizuallashtirish, talaffuzni korreksiyalash va lug'at zaxirasini boyitishda yordam beradi [3]. AKTdan foydalanish o'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etishda ham muhim rol o'ynaydi [3].



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Axborot kompetensiyasini rivojlantirish modeli. Kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish modeli quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

- inklyuzivlik – barcha o'quvchilarni, shu jumladan eshitish nuqsoni bo'lganlarni ham umumiylar ta'limga jarayoniga jaib qilish va ularga teng imkoniyatlar yaratish;
- individual yondashuv – har bir o'quvchining eshitish nuqsoni darajasi, kognitiv xususiyatlari va o'rganish uslubini hisobga olgan holda ta'limga jarayonini tashkil etish;
- texnologiyalardan foydalanish – axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'limga jarayoniga faol integratsiya qilish;
- hamkorlik – pedagoglar, surdopedagoglar, psixologlar, ota-onalar va o'quvchilar o'rtaida yaqin hamkorlikni ta'minlash.

Modelning komponentlari quyidagilardan iborat:

- o'quv dasturlari – axborot kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan maxsus modularlar va mashg'ulotlarni o'quv dasturlariga kiritish. Bu modularlar axborotni izlash, baholash, tashkil etish va yaratish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak;
- o'qitish metodlari – vizual, interaktiv va amaliy metodlardan keng foydalanish. Masalan, loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'limga, keys-stadi metodlari;
- texnik vositalar – maxsus eshitish apparatlari, koxlear implantlar, ovoz kuchaytiruvchi apparaturalar, kompyuterlar, planshetlar, interaktiv doskalar va maxsus dasturiy ta'minotlardan foydalanish;
- pedagoglarning tayyorgarligi – pedagoglarning surdopedagogika, maxsus psixologiya va AKTdan foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish. Ular kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning ehtiyojlarini tushunishi va ularga mos ta'limga muhitini yaratishi kerak;
- ota-onalar bilan hamkorlik – ota-onalarni ta'limga jarayoniga faol jaib qilish, ularga axborot kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berish va qo'llab-quvvatlash.

AKT vositalaridan foydalanishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- multimediali materiallar – videolar, animatsiyalar, infografikalar kabi vizual va audio materiallardan foydalanish. Bu materiallar axborotni tushunishni osonlashtiradi;
- onlayn resurslar – ta'limga platformalari, elektron kutubxonalar, onlayn lug'atlar va ensiklopediyalardan foydalanishni o'rgatish;
- maxsus dasturlar – nutqni vizuallashtirish, talaffuzni korreksiyalash va imo-ishora tilini o'rganish uchun mo'ljallangan dasturlardan foydalanish.

Amaliy tavsiyalar quyidagilardan iborat:

- dars jarayonida vizual yordamchi vositalardan (rasmlar, jadvallar, diagrammalar) keng foydalanish;
- o'quvchilarni internetdan axborot izlash va uni baholashga o'rgatish;
- maxsus ta'limga dasturlari va ilovalaridan foydalanishni rag'batlantirish;
- o'quvchilarning o'zaro muloqotini va hamkorligini rivojlantirish uchun guruh ishlarini tashkil etish.

TAHLIL VA NATIJALAR

Modelni joriy etish va samaradorligini baholash. Taklif etilayotgan axborot kompetensiyasini rivojlantirish modelini ta'limga jarayoniga joriy etish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim. Dastlab, pilot loyihalari doirasida ayrim maktablarda sinovdan o'tkazish, so'ngra tajribalarni umumlashtirib, keng miyosda joriy etish tavsiya etiladi. Modelni joriy etishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

- infratuzilmani yaratish, ya'ni maktablarni zamonaviy AKT vositalari va maxsus jihozlar bilan ta'minlash;
- kadrlar tayyorlash, ya'ni pedagoglar va surdopedagoglar uchun maxsus o'quv kurslari va seminarlar tashkil etish;
- o'quv materiallarini ishlab chiqish, ya'ni maxsus o'quv dasturlari, qo'llanmalar hamda multimediali materialarni yaratish.



Modelning samaradorligini baholash uchun quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin:

- o'quvchilarining axborotni o'zlashtirish darajasi – testlar, so'rovnomalari va amaliy topshiriqlar orqali baholanadi;
- mustaqil ishlash qobiliyati – o'quvchilarining axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish va undan foydalanish ko'nikmalari kuzatiladi;
- ijtimoiy moslashuv – o'quvchilarining ijtimoiy faolligi, muloqot ko'nikmalari va jamiyatga moslashuv darajasi baholanadi;
- pedagoglarning fikr-mulohazalari – ularning modelni qo'llashdagi tajribalari va takliflari asosida tahlil qilinadi.

Modelni joriy etishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar quydagilardan iborat: moliyaviy resurslarning cheklanganligi, pedagoglarning yangi usul va texnologiyalarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklari, ota-onalarning xabardorligi va qo'llab-quvvatlash darajasining yetishmasligi. Bu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, pedagoglar uchun doimiy malaka oshirish kurslarini tashkil etish hamda ota-onalar bilan muntazam ishslash lozim.

XULOSA

Kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish ularning har tomonlama kamol topishi va jamiyatga to'laqonli integratsiyalashuvi uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada taklif etilgan axborot kompetensiyasini rivojlantirish modeli inklyuzivlik, individual yondashuv, texnologiyalardan foydalanish va hamkorlik tamoyillariga asoslanadi. Modelning komponentlari o'quv dasturlari, o'qitish metodlari, texnik vositalar, pedagoglarning tayyorlarligi va ota-onalar bilan hamkorlikni o'z ichiga oladi.

AKT vositalaridan samarali foydalanish axborotga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi va o'quvchilarining bilim olish jarayonini osonlashtiradi. Modelni joriy etishda infratuzilmani yaratish, kadrlar tayyorlash va o'quv materiallarini ishlab chiqishga e'tibor qaratish lozim. Samaradorlikni baholash o'quvchilarining axborotni o'zlashtirish darajasi, mustaqil ishlash qobiliyati va ijtimoiy moslashuvi orqali amalga oshiriladi. Ushbu modelni amaliyotga joriy etish kar va zaif eshituvchi o'quvchilarining axborot jamiyatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari uchun mustahkam zamin yaratadi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

- Odiljonova, S. O'. (2022). Eshitishda nuqsoni bor bolalarni o'qitish metodikasi. Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7396717>
- Musaeva, D. A. (2024). Eshitishda nuqsoni bor bolalarni psixologik tasnifi. CyberLeninka. <https://cyberleninka.ru/article/n/eshitishda-nuqsoni-bor-bolalarni-psixologik-tasnifi>
- Ibadullayeva, Sh. N., & Muvassarova, S. J. (2024). Inklyuziv ta'limdi axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning o'rni va imkoniyatlari. Akademic Journal of Educational Research (AJER). https://ajeruz.com/files/upload/articles/2024-04-01-09-49-08_31bf88bc5ca194000f49e3aa1c79de4c.pdf
- Hamidullo o'g'li, T. H., & Kamolovich, B. E. (2023). Imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan ishslash tajribasi. Scientific Impulse, 1(7), 648–653.
- Tursunov, H. (2024). Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish: Farg'ona misolida. Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions", 206–209. <https://fer-teach.uz/index.php/cod-impas/article/view/2445>
- Tursunov, H. (2024). Imkoniyati cheklangan o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish: O'zbekiston va Yevropa tajribasi. Ta'lim, fan va innovatsiya jurnali, 6-son, 575-bet.
- Ta'lim, fan va innovatsiya jurnali. 6-son, 2024-yil. https://esijournal.uz/wp-content/uploads/2025/01/Talim_fan_va_innovatsiya_6_son_2024_yil.pdf
- Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). Hozirgi kunning dolzarb imkoniyatlari. JAWS va NVDA dasturlari. Scientific Impulse, 1(2), 535–537.
- Tursunov, H. H. (2025). Kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish: Tashkiliy-metodik muammolari. International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health, 54–62.
- Tursunov, H. H., & Hoshimov, U. S. (2022). Ta'lim tizimida ko'zi ojiz o'quvchilarni informatika va axborot texnologiyalari fanida o'qitish texnologiyalari. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 990–993.

- 
- 13.00.00** Pedagogika fanlari
 - 13.00.01** Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
 - 13.00.02** Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03** Maxsus pedagogika
 - 13.00.04** Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05** Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06** Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07** Ta'limda menejment
 - 13.00.08** Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09** Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00** Tarix fanlari
 - 19.00.00** Psixologiya fanlari
 - 01.00.00** Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00** Kimyo fanlari
 - 03.00.00** Biologiya fanlari
 - 09.00.00** Falsafa fanlari
 - 10.00.00** Filologiya fanlari
 - 11.00.00** Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.